



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

JAHON BANKI: UNING AHAMIYATI VA BOSHQARUV TIZIMI

Oybek Axmatdjonov¹, Halilov G'anijon², Mirkomilov Abdulatif³

Qo'qon universiteti Iqtisodiyot va Turizm kafedrasida o'qituvchisi¹

Qo'qon universiteti 1-bosqich talabasi^{2,3}

INFO:

Qabul qilindi: 7.02.2022
Ko'rib chiqildi: 08.02.2022
Chop etildi: 09.02.2022

Kalit so'zlar: Jahon banki,
boshqaruv tizimi, moliya
muassasalari, taraqqiyot
banki, moliya instituti.

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda, dunyo banki bo'lmish Jahon banki juda ham ko'p davlatlarga yordam beradi va qo'llab quvvatliydi. Ushbu maqola, jahon banki, tuzilishi, boshqaruv tizimi va bugungi kundagi ahamiyatini yoritib beradi.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

KIRISH

Jahon Banki — Xalqaro Moliya Instituti hisoblanib, rivojlanayotgan mamlakatlarga sarmoyalar kirgazish, kreditlar taqdim etish bilan shug'ullanadi. Jahon banki — xalqaro moliya muassasasi. Tarkibiga BMTning xoslashgan muassasasi maqomiga ega bulgan 3 mustaqil xalqaro moliya instituti (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya

korporatsiyasi hamda Xalqaro taraqqiyot uyushmasi) kiradi. Ba'zi adabiyotlarda Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki norasmiy holda Jahon banki deb ham ataladi.

1944-yil Bretton-Vuds (AQSh, Nyu-Gempshir shtati)da tashkil etilgan bo'lib, hozirda shtab-kvartirasi (qarorgohi) Vashingtonda joylashgan. Bretton-Vuds xalqaro hamkorligi tomonidan Jahon bankiga belgilangan vazifalar unga berilgan nom — ya'ni Xalqaro qayta tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) da o'z aksini topdi. Asosiy vazifa sifatida iqtisodiy taraqqiyotni moliyalshtirish yuklatildi. Agarda Jahon bankining birlamchi kreditlari ikkinchi jahon urushidan so'ng Yevropaning iqtisodiyotini tiklashga yo'naltirilgan bo'lsa, keyinchalik u o'z e'tiborini jahonning qoloq mamlakatlari iqtisodini tiklashga qaratdi. Hozirgi vaqtda esa Jahon bankining asosiy maqsadi rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotiga, mazkur mamlakatlarning ishlab chiqarish darajasini oshirishga yordam berish va aholining ijtimoiy ahvolini yaxshilashga ko'maklashishdir.

Jahon banki o'z tarkibiga yirik 2 ta tashkilotni: Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) oladi. Ulardan tashqari unga 3 ta boshqa tashkilotlar ham bilvosita kiradi: Jahon banki bilan uyushgan, ammo huquqiy, moliyaviy jihatdan mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi — Xalqaro moliyaviy korparatsiya (XMK) (bu tashkilot rivojlanayotgan mamlakatlardagi xususiy korhonalarni moliyalashtirishga yordam beradi). Investitsion kelishmovchiliklarni tartibga solish xalqaro markazi va Investitsiyalarni har tomonlama kafolatlovchi agentlik (MIGA). Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) mamlakatlarka imtiyozli kreditlar berish bilan shug'ullanib, ular donor mamlakatlar tomonidan beriladigan xayriya mablag'lari asosida moliyalashtiriladi.

Boshqaruv tizimi

Jahon banki dunyodagi kapital, qimmatbaho qog'ozlar bozorlarining asosiy mablag' oluvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, bank bir qator mamlakatlardan obligatsiya, zayom sotish orqali tog'ridan-tog'ri qarz oladi, yig'ilgan mablag'lar qoloq mamlakatlarning taraqqiyoti yo'lida ishlatiladi va ularga imkoniyati darajasidagi past foizlar hisobida beriladi.

Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo'lgan mamlakatlar uchun mablag'larni mujassamlaydi. Ammo, boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga jahon banki tomonidan kredit berilmaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining jon boshiga yalpi mahsulot \$1200 atrofida bo'lgan taqdirda ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankidan kredit olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu kreditlar 12-15 yil ichida qoplanishi lozim. Ikkinchi tomondan, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasini (XTA) kreditlarni qoloqroq mamlakatlarga, ya'ni ulardagi yalpi milliy mahsulot jon boshiga 800 dan kam bo'lgan mamlakatlarga beradi (asosan XTA

tomonidan berilayotgan kreditlarning 80 %ini hozirgi vaqtda aholi jon boshiga \$ 700 dan kam bo'lgan mamlakatlar oladi). Bu kreditlar bo'yicha foizlar olinmasdan, ko'pgina hollarda ular 35-40 yillar oralig'ida to'lash sharti bilan beriladi.

Jahon banki o'z faoliyatini rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga texnik loyihalarni, iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish jihatdan yordam berish orqali bu mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi. Bu vazifalar bankining asosiy uzoq muddatli vazifasi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bank oldingi yillardagi tajribalariga tayangan holda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish bosqichlari darajalarini inobatga olib, loyihalarni tanlash jarayonida asosan rivojlanayotgan mamlakatlarning qoloq qatlamlarini qamrashga, ularning taraqqiyot darajalarini oshirishni nazarda tutgan holda olib borilyapti.

Shuning uchun ham, Bank tomonidan texnik va moliyaviy jihatdan yordam berish va moliyalashtirish jarayonida BMT tomonidan belgilangan dastuga asosan ham texnik yordam beruvchi, ham loyihani ijro etuvchi sifatida qatnashadi.

Bank tomonidan tanlanadigan loyiha, ularning yo'nalishlari milliy mamlakatlar, ularning mahalliy hokimiyatlari, boshqa tegishli tashkilotlar bilan har tomonlama kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Bank kredit ajratish jarayonida o'z mutaxassislari ishtirokida kredit oluvchi mamlakatlarning iqtisodini sinchkovlik bilan tahlil etish asosida qaysi sohaga asosiy e'tibor berish yoki qo'yilmalarni joylashtirish borasida u yoki bu sohani tanlash imkoniyatidan foydalaniladi. Bunday tahlitda ish yuritish ushbu malakatlarning asosiy muammolari yechimida qatnashib, uning rivojlanishiga yordamlashishni nazarda tutadi.

O'zbekiston bilan hamkorligi

1992 yilning sentabr oyidan boshlab O'zbekiston Respublikasi Jahon bankining to'la huquqli a'zosi xisoblanadi. O'zbekiston Jahon bankiga a'zo mamlakatlar Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'izston, Polsha, Serbiya, Shveytsariya, Tojikiston va Turkmaniston bilan birgalikda shveytsariya-guruhi tarkibiga kiradi. 1992 yilning sentabr oyida Toshkent shahrida Jahon bankining vakolatxonasi ochildi. 2017 yilning mart oyidan boshlab uni janob Xideki Mori boshqarmoqda. Hozirda Jahon bankining O'zbekiston Respublikasi tomonidan ofisi bo'lib Investitsiyalar bo'yicha Davlat qo'mitasi hisoblanadi. O'zbekistonda 2017 yilda amalga oshirilgan keng ko'lamlislohotlarni munosabati bilan Markaziy bankning Jahon banki guruhi bilan hamkorligi sezilarli darajada faollashdi.

2017 yilning sentabr oyida global amaliyoti menedjeri Alfonso Garsiya Mora rahbarligidagi Jahon banki delegatsiyasining tashrifi natijasida kelishuv yakuni, shuningdek, 2017 yilning oktabr oyidagi XVF va Jahon banki yillik majlisida O'zbekiston delegatsiyasining yakuni bo'yicha Markaziy bankning Jahon banki guruhi bilan hamkorligi

bank sektorini takomillashtirish, shu bilan birga, davlat islohotlarini amalga oshirilishi natijasida moliyaviy sektorda namoyon bo'lishi mumkin bo'lgan xavfni bartaraf qilish bo'yicha keng doiradagi masalalar bo'yicha hamkorlik yo'nalishlari belgilandi.

2017 yilning IV choragida ikki yo'nalish bo'yicha ish boshlandi: bank boshqaruvi va nazorati me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish hamda tijorat banklarning stress-testdan o'tkazishning metodologiyasini ishlab chiqish. Markaziy bank xodimlari Jahon banki mutaxassislari bilan birgalikda bir nechta videokonferensiyalar tashkil etildi va unda asosiy mavjud muammolar aniqlandi hamda stress-test o'tkazish bo'yicha tadbirlar muvofiqlashtirildi.

Markaziy bankning 4 nomativ hujjatlarining qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari grafigi ishlab chiqildi: "Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (reg.№2693, 06.07.2015), "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (reg.№2696, 14.07.2015), "Tijorat banklarining likvidligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" (reg.№2709, 13.08.2015), "tijorat banklarining O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga topshiriladigan bank nazorati bo'yicha hisobotini to'ldirish bo'yicha tavsiyalar". 2018 yilning mart oyining oxirida ularni mukammallashtirish bo'yicha ishlar tugatilishi nazarda tutilmoqda.

Moliyaviy sektor va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida 12 dan 15 dekabrgacha bo'lgan davrda Jaxon bankining texnik ko'magi missiyasi Markaziy bankda bo'ldi va Kredit tashkilotlarini prudensial nazorati va kredit tashkilotlarini inspeksiya qilish departamenti xodimlariga konsultatsiya berdi.

Keyingi birgalikdagi faoliyat risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv bo'yicha nizom, shuningdek, joylarda inspeksiya qilish metodologiyani ishlab chiqishni ko'zda tutadi. Ushbu me'yoriy xujjatlarga o'zgartirish kiritish bo'yicha tafsilotlar joriy yilning mart-aprel oylariga rejlashtirilgan Jahon banki mutaxassilarining uchinchi missiyasi jarayonida muhokama qilinadi.

Stress-testlash yo'nalishida ushbu jarayonda Markaziy bank xodimlarining faol ishtirokida ularni o'qitish va malakalarini takomillashtirishda 2-3ta yirik tijorat bankida stress-testlashnia amalga oshirish misolida uning metodologiyasini ishlab chiqish borasida Jaxon banki ekspertlarining texnik ko'magini olish ko'zda tutilmoqda. Bundan tashqari, Jahon bankining 2017 yilning sentabr oyidagi missiya yakuni Ma'lumotnomasida ko'rsatib o'tilgan taklif asosida, o'rta muddatli (3-5 yil) istiqbolda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha hamkorlik masalalari ishlab chiqilmoqda:

banklarni sog'lomlashtirish bo'yicha maslahat (ayrim banklarni moliyaviy holatini tahlil

qilish asosida risklarni aniqlash, oqibatlarini yengillashtirish va korrekcirovka qilish chora-tadbirlari bo'yicha tavsiyalar berish, potensial restruktizatsiya yoki sog'lomlashtirishni hisobga olgan holda).

tijorat banklaridagi tanklik vaziyatlarni boshqarish metodologiyasini ishlab chiqish bank tizimida Bazil III joriy etish ta'sirini miqdoriy tadqiqot o'tkazish hamda ushbu o'tish jarayonini ishlab chiqish.

omonatlarni sug'urta qilishni tizimi modernizatsiyalash
moliyaviy sektorni baholash Dasturlari doirasida baholashni amalga oshirish.

Xulosa

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, Jahon bankini tarixi juda uzoq vaqtlrga borib tarqaladi. Jahon banki dunyodagi kapital, qimmatbaho qog'ozlar bozorlarining asosiy mablag' oluvchisi hisoblanadi. Bundan tashqari, bank bir qator mamlakatlardan obligatsiya, zayom sotish orqali tog'ridan-tog'ri qarz oladi, yig'ilgan mablag'lar qoloq mamlakatlarning taraqqiyoti yo'lida ishlatiladi va ularga imkoniyati darajasidagi past foizlar hisobida beriladi. Jahon banki kredit olish, uni qaytara olish darajasida bo'lgan mamlakatlar uchun mablag'larni mujassamlaydi. Ammo, boy mamlakatlarga yoki alohida shaxslarga jahon banki tomonidan kredit berilmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mulaydinov, F. (2021). Digital Economy Is A Guarantee Of Government And Society Development. *Ilkogretim Online*, 20(3), 1474-1479.
2. Mulaydinov, F. M. (2019). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *Формы молодых ученых*, (3), 35-43.
3. Farkhod, M. (2020). Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(02).
4. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda axborot texnologiyalarining orni-The role of information technologies in the development of the digital economy.
5. Mulaydinov, F., & Nishonqulov, S. (2021). The role of information technologies in the development of the digital economy. *The role of information technologies in the development of the digital economy*.
6. Mulaydinov, F. M. (2021). CROWDFUND OPPORTUNITIES IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP. *Academic research in educational sciences*, 2, 23-32.
7. Butaboyev, M., Urinov, A., Mulaydinov, F., & Tojimatov, I. Digital economy.
8. Nusratovich, S. H. (2019). The role of the food industry in the national economy. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 9(10), 26-34.
9. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 250-254.
10. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. (2021). OLIY O'QUV YURTLARIDA IQTISOD BO'YICHA QO'LLANMA: O'ZGARMAS" MA'RUZA VA BO'R" USULINI KO'RIB CHIQISH. *Scientific progress*, 2(3), 814-824.

11. Nishonqulov, S. F. O., Rajabboyev, B. O. O., & Mamasoliyev, J. O. O. (2021). IQTISODIYOT VA UNING TARMOQLARINI RAQAMLASHTIRISH. IQTISODIYOT SOHASIGA RAQAMLI TEXNANOLOGIYALARNI OLIB KIRILISHI. *Scientific progress*, 2(3), 825-831.
12. Akhmadjonov, O., Nishonqulov, S., Rajabboyev, B., Nazirov, A., & Meliboyev, A. (2021). ISLOM BANKI VA O'ZBEKISTON. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 766-775.
13. Solidjonov, D. Z. O. (2021). THE IMPACT OF THE DEVELOPMENT OF INTERNET TECHNOLOGIES ON EDUCATION AT PANDEMIC TIME IN UZBEKISTAN. In *СТУДЕНТ ГОДА 2021* (pp. 108-110).
14. Solidjonov, D. Z. (2021). The impact of social media on education: advantage and disadvantage. *Экономика и социум*, (3-1), 284-288.
15. Solidjonov, D. (1990). TYPES OF READING AND WRITING SKILLS ON TEACHING. *Signal Processing*, 4, 543-564.
16. Rakhimov, M., Yuldashev, A., & Solidjonov, D. (2021). THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE MANAGEMENT OF E-LEARNING PLATFORMS AND MONITORING KNOWLEDGE OF STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 308-314.
17. Solidjonov, D. (2021). O'QITISH JARAYONLARIDA GOOGLE CLASSROOM PLATFORMASIDAN FOYDALANISH VA UNING FOYDALI JIHATLARI. *Scientific progress*, 2(3), 389-396.
18. Solidjonov, D., & Nishonqulov, S. (2021). TA'LIM BIZNESIDA YANGI INNOVATION TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANISHI JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-1. *ISSUE-3 (Part-1, 18-JUNE)*, 1, 195-199.